

XUSUSIY KAPITALDAGI O'ZGARISHLAR TO'G'RI SIDAGI HISOBOT TUZISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Kozimjonov Abrorbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Buxgalteriya hisobi" kafedrası

dotsenti, PhD, dotsent.

ORCID:0000-0001-5217-6559

a.kozimjonov@tsue.uz

Tel: 998977388784

Annotatsiya: Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taqdim etiladigan xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotning mazmun mohiyati o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Xususiy kapitalning asosiy tarkibi bo'lgan taqsimlanmagan foyda, ustav kapitali, rezerv kapitali, qo'shilgan kapital kabi elementlarning ilmiy va amaliy ahamiyatining dolzarbligi ochib berilgan. Shuningdek, xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot tuzish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba o'rganilib, ilmiy va amaliy jihatdan muallif tomonidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, xususiy kapital, taqsimlanmagan foyda, ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, izohlar, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS).

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizni yanada rivojlantirish maqsadida qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta'kidlanishicha "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi" borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda mamlakatimiz iqtisodiyotida yangi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish muhim kasb etmoqda. Shu maqsadda, mamlakatimiz Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori hisob tizimidagi o'zgarishlar debochasidir[1,2].

Tadqiqot mavzu bo'lgan xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot tuzish metodologiyasini takomillashtirish masalasi ham yuqoridagi sohaga oid normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan maqsadlarga erishishda ham dolzarb hisoblanadi. Ushbu hisobot buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil muhim bo'lgan moliyaviy hisobotning asosiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu mavzu doirasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni amaliyotga joriy etish ilmiy va amaliy ahamiyat kab etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimiz iqtisodichi olimlaridan R.Dusmurotov, S.N.Tashnazarov, J.Qurbanbayev, S.Djumanov, Sh.T.Ergasheva, A.K.Ibragimov, N.K.Rizayev, M.Tulaxodjayeva, K.B.Urazovlar hozirgi vaqtda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotning maqsadi va mazmuni bo'yicha ilmiy taddqiqotlar olib bormoqdalar.

R.Dusmurotov: "Buxgalterlik (moliyaviy) hisoboti hisobot davri uchun korxona faoliyatining natijalari, tegishli tarzda tasdiqlangan shakllarda taqdim etiladigan, o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar to'plami" deb ta'riflaydi

S.N.Tashnazarov fikriga ko'ra "Moliyaviy hisobot - bu moliyaviy buxgalteriya hisobining maqsadi, funksiyalari va vazifalarini amalga oshirish vositasi bo'lib, uning yordamida korxonaning o'tgan davri uchun moliyaviy holati, uning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijalari, pul mablag'lari va xususiy kapital o'zgarishiga doir ishonchli axborotlarni o'zida mujassamlashtirgan hamda axborot foydalanuvchilarga qarorlar qabul qilish va nazorat uchun axborotga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga qaratilgan tizimdir".

I.Ochilov quyidagicha ta'rifni keltiradi: "Moliyaviy hisobot – xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisobot davri davomida amalga oshirgan moliyaviy mablag'larining harakati va natijalari to'g'risidagi aniq ma'lumotlar yig'indisi bo'lib, undan xo'jalik faoliyatida iqtisodiy tahlil, oqilona nazorat yuritilishi va samarali boshqarish uchun foydalaniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini tashkil qilish va bajarish jarayonida buxgalteriya hisobi usullari asosida ekspertlar bahosi, qiyosiy tahlil, kontent va invent tahlil, tizimli va omilli tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot xo'jalik yurituvchi subyektning mulkdorlari va aksiyadorlarga xususiy kapildagi o'zgarishlar dinamikasi haqidagi ma'lumotlarni moliyaviy qarorlar qabul qilishda yordam beradigan zaruriy axborotlarni taqdim etadi. Ushbu hisobotda xo'jalik yurituvchi subyektning ustav kapitali, qo'shilgan kapitali, taqsimlanmagan foydasi hamda boshqa tarkibiy elementlaridagi o'zgarishlarni tizimli ravishda taqdim etiladi. Shuningdek, mazkur hisobot xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligi va sof foyda taqsimoti bo'yicha qabul qilingan qarorlarni asoslashda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi subyektlar xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 8 oktyabrdagi 181-son buyrug'i 1-ilovasi bo'lgan "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risida"gi NIZOMda belgilangan tartib qoidalarga muvofiq tuzish belgilab qo'yilgan. Agar xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etsalar O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi 61-son "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 3400, 2022 yil 9 dekabr) bilan

tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun quyidagi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnlari bo‘lgan MHXS va buxgalteriya hisoboning xalqaro standartlari (BHXS) foydalanishlari majbur etib qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 8 oktyabrdagi 181-son buyrug‘i 1-ilovasiga muvofiq milliy standartlarga muvofiq tuziladigan “Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot” ning shakli quyidagicha:

1-jadval

XUSUSIY KAPITAL TO‘G‘RISIDAGI HISOBOT

(ming so‘mda)

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Ustav kapitali	Qo‘shilgan kapital	Rezerv kapitali	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	Sotib olingan xususiy aksiyalar	Maqsadli tushumlar va boshqalar	Jami
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Yil boshidagi qoldiq	010							
Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi	020			x	x	x	x	
Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash	030	x	x		x	x	x	
Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo‘lgan valyuta kursi farqlari	040	x		x	x	x	x	
Rezerv kapitaliga ajratmalar	050	x	x			x	x	
Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)	060	x	x	x		x	x	
Tekinga olingan mol-mulk	070	x	x		x	x	x	
Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag‘lar	080	x	x	x	x	x		
Hisoblangan dividendlar	090	x	x	x		x	x	
Xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari	100							
Yil oxiridagi qoldiq	110							
Xususiy kapitalining ko‘payishi (+) yoki kamayishi (-)	120							
MA’LUMOT UCHUN:								
Chiqarilgan aksiyalar soni, dona	130	x	x	x	x	x	x	
shu jumladan:								
imtiyozli	131	x	x	x	x	x	x	

oddiy	132	x	x	x	x	x	x	
Aksiyaning nominal qiymati	140	x	x	x	x	x	x	
Muomaladagi aksiyalar soni, dona	150	x	x	x	x	x	x	
shu jumladan:								
imtiyozli	151	x	x	x	x	x	x	
oddiy	152	x	x	x	x	x	x	

Ushbu hisobot shaklini ko'rish mumkinki, xususiy kapitalning 6 ta elementi ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), sotib olingan xususiy aksiyalar, maqsadli tushumlar va boshqalar haqidagi ma'lumotlar 152 satrdan iborat bo'lgan shaklda aks ettiriladi. Quyida esa, MHXS asosida taqdim etiladigan xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotning shakli hisoblanadi:

2-jadval

Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot

(ming so'mda)									
Ko'rsatkichlar nomi	Satr kod *	Izoh** (izohning tartib raqami)	Ustav kapitali	Qo'shilgan kapital	Rezerv kapitali	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	Boshqa umumlashgan daromadning komponentlari	Xususiy kapitalning boshqa komponentlari	Jami xususiy kapital
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Oldingi hisobot davrining 1-yanvar holatiga qoldiq	0100								
Qayta hisoblangan qoldiq (satr. 0100 +/-0100)	0120								
Oldingi hisobot davri uchun sof foyda (zarar)	0200								
Aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyalariga asosan aksiyalarning chiqarilishi	0300								
O'z ulushli instrumentlarining (aksiyalarining)i chiqarilishi	0310								
Biznes birlashuvi bilan bog'liq ulushli instrumentlarining chiqarilishi	0320								
Chiqarilgan konvertatsiyalanadi	0330								

gan instrumentlarning ulushli komponenti (soliq ta'sirlarini chegirgan holda)									
Hisoblangan dividendlar	0340								
Qayta sotib olingan xususiy aksiyalar	0350								
Taqsimlanmagan foydaga o'tkazish	0360								
Xususiy kapitaldagi boshqa o'zgarishlar	0370								
Oldingi hisobot davrining 31- dekabr holatiga qoldiq (sitr. 0120+/-0200+/- 0210+/-0290)	0380								
Hisob siyosatidagi o'zgarishlar	0390								
Qayta hisoblangan qoldiq (sitr. 0380+/-0390)	0400								
Mulkdor bilan bog'liq operatsiyalar, jami (sitr. 0510+0520+0530+ /-0540-0550+/- 0560+/-0570+/- 0580), shu jumladan:	0500								

* Zaruriy hollarda satrlar bilan to'ldirilishi mumkin.

** Moliyaviy hisobotning moddasiga tegishli izohlarning tartib raqami.

MHXS asosida taqdim etiladigan "Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risida"gi hisobot bilan buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" bilan asosiy farqliy jihatida "Boshqa umumlashgan daromadning komponentlari" bo'lib hisoblanadi.

«Moliyaviy hisobotni taqdim etish» nomli 1-son BHXSga muvofiq: Boshqa umumlashgan daromad - bu davr mobaynidagi operatsiyalar va boshqa hodisalar natijasida xususiy kapitalda yuzaga keladigan o'zgarishdir, bundan mulkdorlar bilan ularning mulkdor sifatida amal qilishidagi operatsiyalardan yuzaga keladigan o'zgarishlar mustasno.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqa umumlashgan daromadning har bir moddasiga tegishli foyda solig'i summasini, jumladan, qayta tasniflash bo'yicha tuzatishlarni foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotda yoki izohlarda yoritib berishi lozim. Boshqa umumlashgan daromad moddalarini quyidagi tartibda taqdim etishi mumkin: tegishli soliq ta'sirlarini chegirgan holda yoki ushbu moddalarning ularga tegishli foyda solig'i solinguncha bo'lgan qiymatini alohida va umumiy foyda solig'ining yagona summasini alohida ko'rsatgan holda.

Boshqa MHXSlar oldin boshqa umumlashgan daromadda tan olingan summalar foyda yoki zararga qachon qayta tasniflanishi yoki tasniflanmasligi mumkinligini belgilaydi. Bunday qayta tasniflashlar mazkur standartda qayta tasniflash bo'yicha tuzatishlar kabi nomlanadi. Qayta tasniflash bo'yicha tuzatish foyda yoki zararga qayta tasniflangan davrda boshqa umumlashgan daromadning tegishli komponentiga kiritiladi. Ushbu summalar boshqa umumlashgan daromadda joriy yoki oldingi davrdagi realizatsiya qilinmagan foyda sifatida tan olingan bo'lishi mumkin. Ushbu realizatsiya qilinmagan foyda boshqa umumlashgan daromaddan realizatsiya qilinmagan foydani jami boshqa umumlashgan daromadda ikki marta hisobga olinishini oldini olish uchun foyda yoki zararga qayta tasniflanadigan davrda chegirilishi lozim.

Xo'jalik yurituvchi subyekt qayta tasniflash bo'yicha tuzatishlarni foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot(lar)da yoki izohlarda taqdim etishi mumkin. Qayta tasniflash bo'yicha tuzatishlarni izohlarda aks ettiradigan subyekt boshqa umumlashgan daromadning moddalarini har qanday tegishli qayta tasniflash bo'yicha tuzatishlardan so'ng taqdim etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ikki hisob tizimdagi hisobot shaklida bir qancha farqliy jihatlari mavjud. Ushbu farqliy jihatlari o'rganish MHXS asosida xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot tuzish metodologiyasini takomillashtirishga imkon eradi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida taqdim etiladigan "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" soddalashtirilgan va an'anaviy shaklda tuzilgan bo'lib, unda ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), sotib olingan xususiy aksiyalar hamda maqsadli tushumlar va boshqalar bo'yicha o'zgarishlar aks ettirilgan. Ushbu shaklda ko'rsatkichlar nomi oddiy moliyaviy operatsiyalar doirasida shakllantirilgan va soddaroq tahlilga yo'naltirilgan.

MHXSlari asosida taqdim etiladigan shakl esa yanada mukammallashtirilgan bo'lib "Boshqa umumlashgan daromadning komponentlari" hamda "Xususiy kapitalning boshqa komponentlari" kabi qo'shimcha ko'rsatkichlar bilan boyitilgan. Bundan tashqari, bu shaklda "Qayta hisoblangan qoldiq", "Hisob siyosatidagi o'zgarishlar", "Mulkdor bilan bog'liq operatsiyalar" kabi chuqurroq va tizimli tafsilotlar keltirilgan.

Asosiy farqliy jihatlardan shundan iboratki MHXS asosidagi shaklda ko'rsatkichlar nomi yanada murakkablashtirilgan, sarlavhalar aniqroq, tafsilotlar esa kengroq yoritilgan. Shu bois, ikkinchi shakl korxonaning xususiy kapitalidagi o'zgarishlarni yanada chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Shuni aytish joizki, moliyaviy hisobotning 4 ta shakli mavjud bo'lib, bu shakllari bir biri bilan uzviy bog'liqdir. Yuqoridagi tadqiqot natijasidan ko'rdikki, "Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot"ni tuzish metodologiyasini takomillashtirishda avvalombor "Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot"ni MHXSlari asosida tuzish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmon (<https://lex.uz/uz/docs/5841063>).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori (<https://lex.uz/ru/docs/4746047>).
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022 yil 10-noyabrdagi 61-sonli «O'zbekiston Respublikasi xududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida»gi buyruq (09.12.2022 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3400).
4. Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 8 oktyabrdagi 181-son "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Buyrug'i (Adiliya Vazirligi tomonidan 04.11.2024 y. 3567-son bilan ro'yxatga olingan);
5. Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 8 oktyabrdagi 181-son buyruqning 1-ILOVAsi Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi NIZOM.
6. Urazov K.B. Moliyaviy hisobot: milliy va xalqaro standartlar muvofiqligi yo'lida. // Bozor, pul va kredit J. –2013. –№4. –57-61-b.
7. J.Qurbanbayev, S.Djumanov. Buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tkazish yo'llari. // Moliya. 2016 y. №1, 99-104-b.
8. S.N. Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. T.: "Navro'z" nashriyoti, 2016 y. 31-47-b. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari to'plami. // ASSA . IFRS/IAS., 2019 y.
9. Ergasheva Sh.T., Ilxamov Sh.I., Kozimjonov A., Mannapova R.A. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. – T.: TDIU, 2022. - 360 bet.
10. Kozimjonov A. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. (O'quv qo'llanma) - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2024. 204 bet.
11. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.
12. Tashnazarov S.N va boshqalar (2018) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. – Samarkand: SamISI, – 421 b.